XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI
NAVBAHOR TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 13 - iyul VI-61-79-5-73-K/23 Navbahor tuman hokimligi

Mahalliy budjetning 2023 yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O’zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasi hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2023-yil 21-iyundagi 2023 yil erkin qoldiq mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi 01-12-230/20-01-38/191-sonli xatiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi v.b (S.Axtamov) mahalliy budjetning 2023 yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga havo harorati keskin ko‘tarilayotganligi sababli tumandagi umumiy o‘rta ta’lim maktablariga konditsioner sotib olish xarajatlari uchun 200.0 mln so‘m miqdordagi mablag‘larni amaldagi budjet tasnifiga rioya qilgan holda mablag‘larni ajratilishini ta’minlasin.

2. Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (X.Raxmatov) ushbu ajratilgan mablag‘larni maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlasin.

3. Tuman hokimligi huquqshunosi, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tuman G‘aznachilik xizmati bo‘limi mahalliy byudjetining 2023-yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratilgan mablag‘larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari

M.Jumaboyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.O'roqov**